

Namangan Viloyatida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi


2025-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Oʻzbekiston Respublikasi qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi boʻyicha uslubiy tushuntirishlar va metamaʼlumotlar

I. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, 2025-yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 13 754,8 mlrd soʻmni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar – 11 624,9 mlrd soʻmni, oʻrmon xoʻjaligi – 1 109,5 mlrd soʻmni, baliqchilik xoʻjaligi – 60,7 mlrd soʻmni tashkil qildi.

Namangan Viloyatida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining oʻsish surʼati



II. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2025-yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Namangan sh. (1 440,4 mlrd soʻm), Toʻraqoʻrgʻon (1 410,4 mlrd soʻm), Namangan t (1 284,8 mlrd soʻm), Chust (1 273,3 mlrd soʻm), Uychi (1 199,1 mlrd soʻm) va Yangiqoʻrgʻon (1 410,4 mlrd soʻm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Mingbuloq tumani (779,7 mlrd so'm), Norin tumani (928,4 mlrd so'm) va Kosonsoy tumanini (901,8 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
Namangan Viloyati	13 754,8	104,4
Namangan sh.	1 440,4	104,2
Mingbuloq	779,7	107,2
Kosonsoy	901,8	102,5
Namangan	1 284,8	106,9
Norin	928,4	104,0
Pop	1 264,4	103,7
To'raqo'rg'on	1 276,4	101,9
Uychi	1 199,1	104,8
Uchqo'rg'on	1 126,9	104,0
Chortoq	905,2	107,2
Chust	1 237,3	103,0
Yangiqo'rg'on	1 410,4	104,2

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Chortoq (107,2 %), Mingbuloq (107,2 %), Namangan t (106,9 %) va Uchqo'rg'on (104,0 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan To'raqo'rg'on (101,9) Kosonsoy (102,5 %), Namangan sh. (104,2 %), Chust (103,0 %), Pop (103,7 %) va Namangan sh (104,2 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish

2025-yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 12 469,2 mlrd so'mni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 103,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 4 817,9 mlrd so'mni (102,1 %), chorvachilik mahsulotlari 7 651,2 mlrd so'mni (104,4 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Namangan sh. (1 202,7 mlrd so'm), To'raqo'rg'on (1 189,8 mlrd so'm), Namangan t (1 218,4 mlrd so'm) va Uychi (1 019,3 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Mingbuloq tumani (696,9 mlrd so'm), Kosonsoy tumanini (730,3 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Kosonsoy (112,8 %), To'raqo'rg'on (104,9 %) va Uchqo'rg'on (102,2 %) tumanlarida qayd etildi. Yangiqo'rg'on (103,7 %), Namangan t (99,9 %) va Chust (102,3 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 72,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 23,0 % i fermer xo'jaliklariga, 4,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Namangan sh. (1 175,7 mlrd so'm), To'raqo'rg'on (704,3 mlrd so'm), Chust (753,4 mlrd so'm) va Yangiqo'rg'on t (741,2 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Mingbuloq tumani (432,2 mlrd so'm), Norin tumani (523,8 mlrd so'm) va Uchqo'rg'on tumanini (567,8 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Kosonsoy (114,4 %), Uychi (105,3 %), Uchqo'rg'on (104,0 %), To'raqo'rg'on (104,0 %) tumanlarida qayd etildi. Mingbuloq (102,0 %), Namangan t (102,1 %), Namangan sh. (102,3 %) va Chortoq (102,5 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 31 334,0 tonna go'sht, 128 402,0 tonna sut, 152 413,0 ming dona tuxum, 315,0 tonna qirqib olingan jun, va 1 090,3 tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,7 % ni, sog'ib olingan sut – 103,4 % ni, olingan tuxum – 121,1 % ni, qirqib olingan jun – 104,0 % ni, hamda ovlangan baliqlar – 110,9 % ni tashkil qildi.

2025-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy



hajmidan 6,6 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 81,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 11,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 6,5 % i fermer xo'jaliklari, 92,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 0,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

**2025-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar-iyun 2025-y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), tonna	87 142,0	105,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	5 806,0	108,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	71 263,0	102,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	10 073,0	123,8
Sut, tonna	364 044,0	103,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	23 745,0	110,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	338 358,0	102,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 941,0	117,2
Tuxum, ming. dona	330 839,0	109,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	115 468,0	81,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	104 407,0	100,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	110 964,0	194,4
Jun, tonna	936,0	102,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	70,0	106,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	859,0	102,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	7,0	77,8



Baliq, tonna	3 011,8	116,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	2 141,0	110,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	29,8	106,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	841,0	136,5

Shu bilan birga, olingan tuxumning 34,9 % i fermer xo'jaliklariga, 31,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 33,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning 7,4 % i fermer xo'jaliklari, 91,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 0,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 71,1 % i fermer xo'jaliklariga, 1,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 27,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari hajmi

	Go'sht (tirik vaznda), tonna	Sut, tonna	Tuxum, ming dona
Namangan Viloyati	87 142,0	364 044,0	330 839,0
Namangan sh.	17 432,9	19 863,3	4 429,7
Mingbuloq	4 906,0	20 792,3	9 715,3
Kosonsoy	7 179,5	24 237,4	61 964,4
Namangan	8 323,5	31 393,6	66 027,9
Norin	5 332,8	29 073,6	12 310,0
Pop	4 520,1	30 702,5	10 236,3
To'raqo'rg'on	7 009,7	36 613,3	48 452,8
Uychi	5 828,2	22 851,7	60 785,9
Uchqo'rg'on	6 062,2	35 747,7	9 423,0
Chortoq	5 872,6	24 383,7	15 950,5
Chust	6 632,4	53 080,9	16 086,4
Yangiqo'rg'on	8 042,1	35 304,0	15 456,8

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Pop (685,0 mlrd so'm), Yangiqo'rg'on (615,0 mlrd so'm), Namangan t (583,7) To'raqo'rg'on (485,5 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Namangan sh. (27,0 mlrd so'm), Kosonsoy tumanini (110,8 mlrd so'm) va Chortoq tumanini (302,4 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Hududlar kesimida yetishtirilgan Don hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Namangan Vilyati	417 463,0	103,9
Namangan sh.	87,7	71,5
Mingbuloq	51 476,9	114,7
Kosonsoy	16 889,1	104,1
Namangan	26 682,0	106,0
Norin	29 476,6	102,1
Pop	90 189,4	103,2
To'raqo'rg'on	41 190,3	100,9
Uychi	40 069,3	105,7
Uchqo'rg'on	58 662,5	101,2
Chortoq	11 746,6	103,8
Chust	40 505,8	100,1
Yangiqo'rg'on	10 486,8	97,7

Yetishtirilgan don mahsulotlarning umumiy hajmining eng yuqori ulushi Pop tumani (21,6 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Uchqo'rg'on (14,1%), Mingbuloq (12,3%), Chust (9,7 %) va Norin (7,1 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Kosonsoy (4,0 %), Yangiqo'rg'on (2,5 %) va Chortoq tumanida (2,8 %) kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan kartoshka hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Namangan Vilyati	152 273,0	104,6
Namangan sh.	178,6	323,0
Mingbuloq	5 274,2	105,1
Kosonsoy	2 107,1	108,0
Namangan	15 389,3	102,7
Norin	16 075,4	102,9
Pop	9 770,4	103,5
To'raqo'rg'on	11 830,6	104,8
Uychi	10 854,0	102,7
Uchqo'rg'on	9 674,9	105,6
Chortoq	13 006,7	108,1
Chust	11 801,8	105,6
Yangiqo'rg'on	46 310,0	104,6

Yetishtirilgan kartoshka umumiy hajmining eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on tumani (30,4 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Norin (10,6%), Namanagan t (10,1%), Chorotoq (8,5 %), To'raqo'rg'on (7,8 %) va Chust (7,8 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Mingbuloq (3,5 %), va Kosonsoy tumanida (1,4 %) kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Namangan Vilyati	297 676,0	104,0
Namangan sh.	3 044,6	105,4
Mingbuloq	3 456,1	105,1
Kosonsoy	3 501,6	120,4
Namangan	55 965,9	101,9
Norin	23 477,9	103,7

Pop	29 774,5	104,1
To'raqo'rg'on	24 638,7	103,7
Uychi	38 113,3	103,4
Uchqo'rg'on	32 918,6	103,3
Chortoq	14 243,3	103,9
Chust	15 448,3	104,9
Yangiqo'rg'on	53 093,2	106,2

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Namangan tumani (18,8 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Yangiqo'rg'on (17,8%), Uychi (12,8%), Uchqo'rg'on (11,1 %), Pop (10,0 %), To'raqo'rg'on (8,3 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Mingbuloq(1,2 %), Kosonsoy tumanida (1,2 %) kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan Poliz hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Namangan Vilyati	15 313,0	109,8
Namangan sh.	0,0	0,0
Mingbuloq	1 281,2	106,9
Kosonsoy	0,0	0,0
Namangan	2 138,0	110,0
Norin	1 389,7	106,8
Pop	3 181,3	106,8
To'raqo'rg'on	1 781,9	110,0
Uychi	1 482,4	109,8
Uchqo'rg'on	1 658,6	111,2
Chortoq	116,0	108,3
Chust	1 075,5	112,0
Yangiqo'rg'on	1 208,4	121,1

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Pop tumani (20,8 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Namangan t (14,0 %), To'raqo'rg'on (11,6%), Uchqo'rg'on (10,8 %) va Chust (7,0 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Chust (7,0 %), Yangiqo'rg'on (7,9 %) kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan meva va rezavorlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Namangan Vilyati	81 917,0	104,9
Namangan sh.	1 137,6	130,2
Mingbuloq	1 678,2	105,0
Kosonsoy	1 495,8	104,0
Namangan	8 170,8	103,8
Norin	4 549,4	109,1
Pop	12 980,5	103,7
To'raqo'rg'on	13 012,6	104,5
Uychi	8 223,0	103,7
Uchqo'rg'on	5 262,4	111,4
Chortoq	11 170,0	104,2
Chust	6 696,7	105,4
Yangiqo'rg'on	7 540,0	101,2

Yetishtirilgan meva va rezavorlar umumiy hajmining eng yuqori ulushi To'raqo'rg'on tumani (15,9 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Pop (15,8 %), Chortoq (13,6 %), Namangan t (10,0 %), tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Mingbuloq (2,0 %), Kosonsoy tumanida (1,8 %) kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan uzum hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Namangan Vilyati	8 051,0	106,5
Namangan sh.	21,2	106,0
Mingbuloq	149,5	120,5
Kosonsoy	0,0	0,0
Namangan	1 694,5	107,2
Norin	178,7	104,6
Pop	815,2	106,6

To'raqo'rg'on	1 187,8	102,4
Uychi	209,0	110,9
Uchqo'rg'on	117,6	106,7
Chortoq	1 747,2	103,2
Chust	724,5	107,8
Yangiqo'rg'on	1 205,8	112,4

Yetishtirilgan uzum hajmining eng yuqori ulushi Chortoq tumani (21,7 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Namangan t (21,0 %), Yangiqo'rg'on (15,0 %), To'raqo'rg'on (14,8 %), Pop (10,1 %) va Chust (9,0 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Uchqo'rg'on (1,5%) Mingbuloq (1,9 %), Uychi (2,6 %) tumanida kuzatildi.

IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2025-yilning 1-iyul holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 778 273 boshga yetdi, (2024-yilning 1-iyul holatiga nisbatan 2,1 % ga ko'p), sigirlar 259 159 boshga (2,9 % ga ko'p), qo'y va echkilar 843 086 boshga (1,5 % ga ko'p), parrandalar 7 504 599 boshga (11,8 % ga ko'p) yetdi.

2025-yilning 1-iyul holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar	778 273	102,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	48 553	105,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	716 693	101,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	13 027	138,5
shundan sigirlar	259 159	102,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	23 363	108,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	232 056	101,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3 740	193,6
Qo'y va echkilar	843 086	101,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	66 539	107,9

dehqon va tomorqa xo'jaliklari	769 654	100,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	6 893	116,9
Otlar	7 357	101,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1 094	109,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	6 203	100,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	60	171,4
Parrandalar	7 504 599	111,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	2 370 190	88,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 126 210	100,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3 008 199	157,6

2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,2 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 92,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 9,0 % i fermer xo'jaliklariga, 89,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilar umumiy sonidan 7,9 % i fermer xo'jaliklariga, 91,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 31,6 % i fermer xo'jaliklariga, 28,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 40,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2025-yilning 1-iyul holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Namangan Vilyati	778 273	843 086	7 504 599
Namangan sh.	80 044	135 351	306 189
Mingbuloq	53 676	25 743	395 652
Kosonsoy	57 086	60 589	1 193 040
Namangan	54 722	39 211	1 095 823
Norin	49 848	43 545	190 927
Pop	71 549	122 472	500 929

To'raqo'rg'on	69 085	61 160	904 671
Uychi	52 611	45 360	1 271 573
Uchqo'rg'on	72 557	43 428	707 141
Chortoq	67 212	57 453	372 630
Chust	81 385	136 340	236 230
Yangiqo'rg'on	68 498	72 434	329 794

V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.



Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:
A. Ayubjanov
69 227-84-82 (5110)

Manzil:
